

Kichik tadbirkorlik


E'tibor bering!

- 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 80,0 foizni tashkil etdi.
- 4312 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,0 birlikni tashkil qiladi.

2018 yilning yanvar-dekabrida 4312 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32,3 foizga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida 24,5 foizni, savdo sohasida 21,9 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 14,2 foizni, qurilish tarmog'ida 12,9 foizni, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 11,0 foizni, tashish va saqlashda 3,4 foizni tashkil qilmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foizda)
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




**Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik
korxona va mikrofirmalar (birlikda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2017 y. yanvar-dekabr	2018 y. yanvar-dekabr	Farqi (+-)
Samarqand viloyati	3259	4312	1053
Samarqand shahar	1059	1319	260
Kattaqo'rg'on shahar	119	216	97
Oqdaryo tuman	116	197	81
Bulung'ur tuman	136	141	5
Jomboy tuman	99	173	74
Ishtixon tuman	181	243	62
Kattaqo'rg'on tuman	130	191	61
Qo'shrabot tuman	40	86	46
Narpay tuman	93	94	1
Payariq tuman	186	280	94
Pastdarg'om tuman	244	332	88
Paxtachi tuman	60	78	18
Samarqand tuman	272	349	77
Nurobod tuman	76	114	38
Urgut tuman	326	319	-7
Tayloq tuman	122	180	58

2018 yilning yanvar-dekabrida kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'pi Samarqand shahrida (1319 ta), Samarqand (349 ta), Pastdarg'om (332 ta), Urgut (319 ta), Payariq (280 ta) va Ishtixon (243 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2018 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil etilgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi (foizda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




2018 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Samarqand shahrida – 30,6 %, Samarqand – 8,1 %, Pstdarg'om – 7,7 %, Urgut – 7,4 %, Payariq – 6,5 % va Ishtixon – 5,6 % tumanlarida tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar (birlikda)
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)**

	2017 y. yanvar-dekabr	2018 y. yanvar-dekabr	Farqi (+-)
Jami	3259	4312	1053
Qishliq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	459	613	154
Sanoat	893	1058	165
Qurilish	337	556	219
Savdo	680	946	266
Tashish va saqlash	116	149	33
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	361	472	111
Axborot va aloqa	82	82	0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	94	116	22
Boshqa turdagi xizmatlar	237	320	83

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar (birlikda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sanoatda - 1058 ta, savdoda – 946 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 613 ta, qurilishda - 556 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 472 ta, tashish va saqlashda - 149 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 116 ta, axborot va aloqada - 82 ta hamda boshqa turdagi xizmatlarda - 320 tani tashkil etdi.

**Yangi tashkil etilgan korxona va mikrofirmalari bo'yicha eng yuqori
ko'rsatgichga ega bo'lgan shahar va tumanlar (birlikda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2017 y. yanvar-dekabr	2018 y. yanvar-dekabr	Farqi (+/-)
Samarqand viloyati	3259	4312	1053
Samarqand shahar	1059	1319	260
Kattaqo'rg'on shahar	119	216	97
Payariq tuman	186	280	94
Pastdarg'om tuman	244	332	88
Oqdaryo tuman	116	197	81
Samarqand tuman	272	349	77
Jomboy tuman	99	173	74
Ishtixon tuman	181	243	62
Kattaqo'rg'on tuman	130	191	61
Tayloq tuman	122	180	58
Nurobod tuman	76	114	38


2018 yil yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Samarqand – 260 ta va Kattaqo'rg'on – 97 ta shaharlarida, Payariq - 94 ta, Pastdarg'om - 88 ta, Oqdaryo – 81 ta, Samarqand – 77 ta, Ishtixon – 62 ta, Kattaqo'rg'on – 61 ta, Tayloq – 58 ta va Nurobod – 38 ta tumanlarida tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan shahar va tumanlar (birlikda)
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatgich Bulung'ur (18,8 birlikda), Jomboy (15,3 birlikda), Payariq (14,0 birlikda), Ishtixon (14,0 birlikda), Samarqand shahrida (12,2 birlikda), Oqdaryo (11,3 birlikda), Tayloq (10,9 birlikda), Pastdarg'om (10,5 birlikda) va Samarqand tumanida (9,3 birlikda), Urgut, Nurobod, Kattaqo'rg'on tumanlarida 9,0 birlikda, o'rtacha ko'rsatgich 8,9-8,0 birlik oralig'ida Kattaqo'rg'on shahri, Qo'shrabot va Paxtachi tumanlarida aniqlandi. Narpay tumanida 6,2 birlikda ushbu ko'rsatgich past bo'lib qolmoqda.

2018 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2017 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 10,3 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 11,0 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 0,7 birlikka ko'paydi.

**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga.**



Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2016 yilda 9,4 birlikni, 2017 yilda 10,3 birlikni tashkil etgan, bo'lib 2018 yilda bu ko'rsatkich 11,0 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 1,6 birlikda, 2017 yil ko'rsatkichidan 0,7 birlikda yuqori.


**2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlarida
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi (foizda)**



2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi sanoatda 51,1 foizni, qurilishda - 98,3 foizni, investitsiyada - 44,4 foizni, savdoda - 90,5 foizni, eksportda - 80,0 foizni, importda - 69,4 foizni va xizmatlar sohasida - 73,6 foizni tashkil qilmoqda.

2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi

YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 80,0 foizi kichik tadbirkorlik sub'yektlari (biznes) hissasiga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich 2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan 1,8 bandga kamaygan.



2018 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi (foizda)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
Samarqand viloyati	51,1	98,3	73,6
Samarqand sh.	39,0	95,1	62,0
Kattaqo'rg'on sh.	41,8	100,0	93,7
Bulung'ur	100,0	100,0	98,1
Jomboy	17,2	100,0	87,5
Ishtixon	53,0	100,0	97,8
Kattaqo'rg'on	48,7	100,0	97,4
Narpay	29,7	100,0	97,4
Nurobod	100,0	100,0	96,3
Oqdaryo	75,1	100,0	97,6
Payariq	53,3	100,0	97,8
Pastdarg'om	62,8	100,0	77,1
Paxtachi	62,1	100,0	96,5
Samarqand	99,6	100,0	91,6
Tayloq	83,1	100,0	83,4
Urgut	96,2	100,0	94,6
Qo'shrabot	100,0	100,0	99,2

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushi Bulung'ur 100,0 foizni, Nurobod 100,0 foizni, Qo'shrabot 100, foizni, Samarqand 99,6 foizni tumanlarida;

Qurilishda Urgut 100,0 foizni, Jomboy 100,0 foizni, Pastdarg'om 100,0 foizni, Nurobod 100,0 foizni tumanlarida ;

Xizmatlar sohasida Qo'shrabot 99,2 foizni, Bulung'ur 98,1 foizni, Ishtixon 97,8 foizni, Oqdaryo 97,6 foizni va Kattaqo'rg'on 97,4 foizni tumanlarida qayd etildi.

2018 yilning yanvar–dekabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6064,5 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 51,1 foiz) yoki 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 foizni tashkil qildi;



3102,2 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 54,0 foizga o'zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 foizni tashkil qildi;



2868,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 98,3 foiz)ga bajarildi va 2017 yilning yanvar– dekabriga nisbatan oʻsish surʻati 115,9 foizni tashkil qildi;



7295,4 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 73,6 foiz) 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan oʻsish surʻati 104,4 foizni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 90,5 foiz yoki 10088,0 mlrd. soʻmni (oʻsish surʻati 102,4 foizni) tashkil qildi;


–257,4 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 80,0 foiz) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 19,4 mln. AQSh dollariga yoki 19,9 foizga koʻp;




- avtomobil transporti yuk aylanmasi 5,1 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 97,2 foiz) ko'payishi ta'minlandi;
- yo'lovchi aylanmasining esa 3,0 foizni (viloyat jami yo'lovchi aylanmasining 98,1 foiz) ko'payishi ta'minlandi;



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan foizda)




2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (2118,0 mlrd. so'm), Urgut tumani (886,0 mlrd. so'm), Pastdarg'om tumani (838,3 mlrd. so'm) va Samarqand tumanlari (518,4 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Paxtachi (29,4 mlrd. so'm) va Qo'shrabot tumanlarida (24,4 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da
chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (2214,5 mlrd. so'm), Urgut (1360,7 mlrd. so'm), Bulung'ur (836,7 mlrd. so'm), Pastdarg'om (768,2 mlrd. so'm), Ishtixon (469,9 mlrd. so'm), Paxtachi (447,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



**2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Samarqand shahrida (3845,9 mlrd. so'm), Samarqand (331,2 mlrd. so'm), Urgut (276,0 mlrd. so'm) va Ishtixon (245,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil IV-chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 115 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, iqtisodiy vaziyati mos ravishda respondentlarning iqtisodiy vaziyatni qulay yoki qoniqarli deb baholashi qurilish sohasida – 26,7 foizni va 65,5 foizni, savdo sohasida – 42,3 foizni va 50,0 foizni, xizmatlar sohasida – 30,0 foizni va 63,3 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 40,0 foizni va 60,0 foizni, sanoatda – 20,7 foizni va 65,5 foizni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 13,8 foizni, savdoda – 7,7 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash
2018 yil IV–chorak uchun, (foizda)



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 20,7 % sanoat korxonalari, 42,3 % – savdo, 30,0 % – xizmatlar, 40,0 % – qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi va 26,7 % –qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini
yaqin uch oyda baholanishi, (foizda)



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi
bo'limi

Mas'ul: J. Butayev

Tel: (0371) 230-85-27